IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

URBANIZATSIYA DARAJASINING MAHALLIY AHOLI QATLAMLARINING TIL O'RGANISHGA BO'LGAN TA'SIRI

Mirzayeva Sevinch Asatullo qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23452732


Annotatsiya: Bugungi kunda mahalliy aholi qatlamlari orasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi davlatlarning iqtisodiy o'sishi va urbanizatsiya darajasining ortishi bilan bevosita bog'liq bo'lib kelmoqda. Buning natijasida globallashuv jarayoni chekka qishloqlar, tumanlar markazi, shahar va poytaxtda turli darajalarga ajralib bormoqda. Zamonaviy texnologiya va metodik uslublarning birinchi bo'lib urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan aholi hududlariga ya'ni poytaxt va viloyat markazlariga yetib kelishi asosiy sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida chekka hududlarning markazlashuvi va rivojlanishga bo'lgan talabini oshirmoqda. Ushbu maqolada urbanizatsiya darajasining mahalliy aholi qatlamlarida til o'rganishga bo'lgan ta'siri yoritilgan.
Kalit so'zlar: urbanizatsiya, xorijiy til o'rganish, sotsiolingvistika, ijtimoiy qatlam, lingvistik kapital, ta'lim tengsizligi.

Аннотация: В настоящее время рост интереса к изучению иностранных языков среди различных слоёв местного населения напрямую связан с экономическим ростом государств и повышением уровня урбанизации. В результате процесс глобализации проявляется в разной степени в отдалённых сёлах, районных центрах, городах и столице. Основная причина этого заключается в том, что современные технологии и методические подходы в первую очередь достигают территорий с высоким уровнем урбанизации, то есть столицы и областных центров. Это, в свою очередь, усиливает потребность отдалённых регионов в развитии. В данной статье рассматривается влияние уровня урбанизации на изучение языков различными слоями местного населения.
Ключевые слова: урбанизация, изучение иностранных языков, социолингвистика, социальный слой, лингвистический капитал, образовательное неравенство.

Abstract: Today, the growing interest in learning foreign languages among various strata of the local population is directly linked to the economic growth of countries and rising levels of urbanization. As a result, the process of globalization manifests itself to different degrees in remote villages, district centers, cities, and the capital. The main reason for this is that modern technologies and teaching methods first reach areas with a high level of urbanization, namely the capital and regional centers. This, in turn, increases the need of remote areas for development. This article examines the impact of the level of urbanization on language learning among different strata of the local population.
Keywords: urbanization, foreign language learning, sociolinguistics, social stratum, linguistic capital, educational inequality.

Hozirgi kunda ko’plab sotsiologlar jumladan fransuz sotsiologi Pyer Burdyening fikricha, til shunchaki muloqot vositasi emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy kapitaldir. Rivojlangan tilni bugungi kunda ingliz tilini bilgan odam yaxshi ish, ta’lim va yuqori ijtimoiy mavqega ega bo‘ladi. Shahar muhitida bunday kapitaldan foydalanish imkoniyati, ya’ni xalqaro kompaniyalar, IT va turizm sohalari ko‘proq. Shuning uchun shahar aholisida til o‘rganish motivatsiyasi ham yuqori bo‘ladi. Fishman til tanlovi va til almashinuvi davlat siyosati hamda jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanishini ko‘rsatgan. O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin xorijiy tillar ichida rus tilidan ingliz tiliga qarab burilish kuzatilmoqda. Bu jarayon shahar va qishloqda turli tezlikda kechyotganini ta’kidlab o’tgan. Bundan tashqari Labovning fikricha til xususiyatlari jamiyatning ijtimoiy qatlamlariga qarab farqlanishini shahar misolida isbotlagan. U o’zining tatqiqotlarida tillarning mavqeini baholashda ularni talaffuz qilishni baholasah mezonlaridan biri deb bilgan. Bundan tashqari shaharlardagi zamonaviy migratsiya nazariyasiga ko’ra shahar o’zining ta’lim, ish va xizmatlari va mehnatga to’lanadigan o’rtacha oylik maoshining yuqoriligi bilan odamlarni o’ziga tortadi. Xorijiy tillarini bilish darajalari esa zamonaviy migratsiya nazariyalarining asosiy resurslaridan biri bo’lib xizmat qilib kelmoqda.

O’zbekiston Respublikasi o’zining 35 yillik mustaqillik davrida yangi renessan strategiyasini tanladi va buning natijasida shahar va qishloq aholisining sonini deyarli teng nuqtaga olib kelishga muvaffaq bo’ldi. O’tgan 2025-yilning 1-oktyabr holatiga ko’ra mahalliy aholining 51 foizi shaharlarda, 49 foizi qishloqlarda istiqomat qilishi aniqlandi. Bu esa aholining qariyb yarmida hudud tafovvuti bevosita ta’sir qiladi. Umumiy til bilish darajasining pasayib borayotgani ham so’ngi ikki yillikda kuzatilmoqda. Bunga misol qilib quyidagi EF English Proficiency Index ya’ni ingliz tilini bilish darajasi xalqaro indeksi natijalarini ko’rishimiz mumkin. Unga ko’ra O’zbekiston 2025-yilda reytingda 123 davlat Ichida 104-o’rinni egallagan. Bungacha bo’lgan yillarda O’zbekiston 2024-yili 98-o’rin, 2023-yilda esa 93-o’rinni qayd e’tib kelgan.



Global ranking of countries and regions 2025

Xalqaro tadqiqotlar ma’lumotlari mamlakat ichida xorijiy til bilish darajasida sezilarli hududiy tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. EF Education First kompaniyasining 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, ingliz tilini bilish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Andijon 461 ball, Toshkent 457 ball va Farg‘ona 456 ball shaharlarida qayd etilgan. Eng past natijalar esa Jizzax 384 ball, Qashqadaryo 404 ball va Xorazm 405 ball viloyatlarida kuzatilgan. Shu bilan birga, ushbu ma’lumotlarni talqin qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi: EF SET testini ixtiyoriy ravishda, asosan ingliz tilini o‘rganishga qiziqqan shaxslar topshiradi, bu esa tanlanma reprezentativligini cheklaydi. Hududiy tafovutning asosiy sabablaridan biri qishloq hududlarida malakali pedagog kadrlar va o‘quv resurslarining yetishmasligidir. Tadqiqotlarda ingliz tili o‘qituvchilarining tanqisligi, ayniqsa qishloq joylarida, sohadagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etilgan. Shuningdek, zamonaviy o‘quv materiallaridan foydalanish imkoniyati qishloq va kam ta’minlangan maktablarda notekisligicha qolmoqda. Kadrlar yetishmasligi tufayli chekka hududlardagi maktablar ko‘pincha to‘liq malakaga ega bo‘lmagan mutaxassislarni ishga jalb qilishga majbur bo‘lmoqda. Masalan, Samarqand viloyati maktablarida e’lon qilingan bo‘sh ish o‘rinlari orasida ingliz tili o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyoj eng yuqori bo‘lib 81 nafarni tashkil etadi, kadrlar tanqisligi ayniqsa Nurobod, Qo‘shrabot va Narpay tumanlarida sezilgan. Mazkur muammoni chuqurlashtiruvchi yana bir omil malakali o‘qituvchilarning xususiy ta’lim sektoriga oqib ketishidir. Xususiy maktablar va o‘quv markazlari davlat maktablariga nisbatan yuqoriroq ish haqi, qulayroq sharoit va kichikroq sinflarni taklif etadi, shuningdek, o‘qituvchilarni ma’muriy

yuklamalardan ozod qiladi. Bunday muassasalarning asosan shahar joylarida faoliyat yuritishi qishloq aholisining sifatli til ta’limidan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Bu holat P.Burdyening lingvistik kapital nazariyasiga muvofiq keladi, ya’ni uning ta’kidlashicha rivojlangan davlat tilini egallash imkoniyati oilaning iqtisodiy resurslari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Metodik jihatdan ham muammolar saqlanib qolmoqda. D. Hasanovaning tadqiqotida mustaqillikdan keyingi davrda ingliz tili ta’limi bo‘yicha o‘quv dasturlaridagi o‘zgarishlar moliyaviy ta’minotning yetishmasligi va o‘qituvchilar tayyorgarligining yetarli emasligi sababli to‘liq amalga oshirilmagani qayd etilgan.

O‘zbekistonda xorijiy til ta’limini rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son qarori bilan umumta’lim maktablarida xorijiy tillarni 1-sinfdan boshlab o‘qitish joriy etilgan. Prezidentning 2021-yil 19-maydagi farmoni bilan esa Vazirlar Mahkamasi huzurida Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilgan. Agentlik vazifalari qatoriga hududlar, tarmoqlar va ta’lim muassasalarining ehtiyojlarini tahlil qilish asosida til treninglarini tashkil etish ham kiritilgan. Shuningdek, hukumat qarori bilan 207 ta ta’lim muassasasi xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar ro‘yxatiga kiritilgan va xorijiy tillarda sutka davomida efirga uzatiladigan teleradiokanallar faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Mazkur choralar hududiy ehtiyojlarni hisobga olishni nazarda tutsa-da, xalqaro reytinglardagi pasayish tendensiyasi va viloyatlar o‘rtasidagi farqlar ularning samarasi qishloq hududlariga hali yetarli darajada yetib bormaganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, onlayn va teleradio resurslarining samaradorligi internet va axborot infratuzilmasining mavjudligiga bog‘liq bo‘lib, bu omil ham urbanizatsiya darajasi bilan uzviy aloqador. Shu jihatdan, davlat choralarining turli urbanizatsiya darajasidagi hududlarda qanday natija berayotganini empirik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbonov P. R. Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: monografiya. – Toshkent, 2019.
2. ” Language and Symbolic Power.”- Bourdieu P. – Cambridge, MA: Harvard University (1991)
3. Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi: darslik. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022. – 254 b.
4. Gulomova R. Sotsiolingvistika va sotsiolingvistik tahlil // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika.